

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARI**Jakbaraliyeva Zarina Sherali qizi**

UBS Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston o'lkasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati va uning yetakchi namoyondalari faoliyati yoritiladi. Jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy-siyosiy islohotlar g'oyalarini ilgari surgan harakat sifatida tahlil qilinadi. Maqolada jadid maktablari tashkil etilishi, yangi usuldagi ta'lim tizimining joriy qilinishi, matbuot va teatrning rivojlanishidagi o'rni hamda milliy istiqlol g'oyalarining shakllanishiga qo'shgan hissasi ochib berilgan.

Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va Cho'lpon kabi namoyondalarning ma'rifiy, adabiy hamda siyosiy faoliyati ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, islohotchilik g'oyalari, milliy matbuot, taraqqiyparvarlik, Turkiston jadidlari, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, milliy o'zlikni anglash, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat.

XIX asr oxiriga kelib jadidchilik namoyondalari yuzaga keldi. Jadidchilik harakati o'z davrining eng muhim ijtimoiy-madaniy o'zgarishlaridan biri bo'lib xalqning ma'rifat darajasini oshirish va yangi fikirlarni jamiyatga targ'ib qilishga harakat qiladi. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda xususan Turkiston hududida shakllangan, yangi zamonaviy maktab matbaa va taraqqiyotining ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma'rifiy harakat. Ushbu harakat, xalqning ma'rifatini oshirish, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va an'anaviy qadiryatlarni yangilash maqsadida tashkil

etilgan. Jadidchilar zamonaviy fikirlarni, gumanizmni va ilmiy yondashuvlarni o'zlarining asarlarida aks ettirib, xalqni o'zgarishlarga chaqirdilar.

Jadidchilik harakatlariga ko'plab millat ziyolilari qatnashgan ijtimoiy-siyosiy jarayondir. Jamiyatni madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish va milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi bo'lgan. Turkistondagi jadidchilik harakati namoyondalariga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Is'hiqxon To'ra Ibrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov Mahmudxo'ja Behbudiy XIX asr bo'sag'asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatlarning eng yirik namoyondalari yangi davr o'zbek madaniyatining asoschilaridir. Turkiston jadidlarining tan olingan raxnamosi, mustaqil jamiyat g'oyasining yalavbardori, yangi maktab g'oyasini nazaryotchisi va amalyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, nashir, jurnalist. Maxmudxo'ja Behbudiy tariximizning go'yat og'ir va murakkab bir davrda yashagan shaxslardan biri bo'lgan. Maxmudxo'ja Behbudiy "Usuli jadid", "Usuli savtiy" nomlari bilan shuxrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, shular birinchi bo'lib zamonaviy maktab g'oyasini ilgari surdilar

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qirimda Ismoil Gasprinskiy (1851-1914) raxbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga keldi. Ismoil Gasprinskiy dastlab 1884-yilning mart oyida Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va "usuli savtiya tadrijiya" nomli maktabi bo'lgan. Yangi usul- "usuli jadid -savtiya usullari bilan 12 ta bola o'qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. 1911-yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib ularda 4106 bola o'qigan. Toshkentning o'zida 24 ta bunday maktablarda 1740 bola o'qigan. 1917-yil boshlarida o'lkada 100ga yaqin jadid maktablarida 5mingdan ziyod o'quvchi bo'lgan[1.9].

Jadidchilik harakati namoyondalaridan yana biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'iladi. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamonining ma'rifatli va chuqur bilimga ega. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim matbuot teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib 1907-yil "Shuhrat" gazetasiga asos soldi.

O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darsliklarini yaratadi[2.74].

Avloniyning “Birinch muallim”i ham o'zining ma'lum o'rniga ega. “Birinch muallim” 1917-yilga qadar 4 marta nashr etilgan. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari. Avloniy 1917-yil fevral voqealaridan keyin “Yashasin xalq jumhuriyati!” shoiri ostida “Turon” gazetasini chiqardi[3.8].

Jadidchilik xarakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri -Abdurauf Fitrat (1886-1938). Abdurauf Fitrat -o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili birinch o'zbek professori. Jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori. U Turkiyada ta'lim olgan. Inqilibga qadar O'rta Osiyoni Rasiyadan ozozd qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo'lgan. Turkiyadagi “Yosh turklar”harakatidan ilhomlanib, Buxoroda “Yosh buxoroliklar” partiyasini tuzgan, uning ma'naviy rahnomosiga aylangan. Do'sti va malakadoshi Munizim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborilgan. Fitrat shuningdek maktablar, jadid maktab usuli, madaniy- ma'rifiy yangilanish g'oyalari tarafdori bo'lgan. U 1937-1938-yillarida Stalinning repressiyalari davomida Fitrat va boshqa ziyolilar bilan birga qatl etiladi. U 1950-1960-yillarda sovet hokimiyati tomonidan oqlanadi.

Yana bir dunyoga mashhur atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov o'tmish tariximiz va ajdodlarimizga taalluqli bo'lgan. Ona tariximizda ham, hatto chet ellarda ham hamisha qadrlaydigan buyuk ajdodlarimiz juda ko'p. Shulardan biri mamlakatimizdagi jadidchilik harakatining yetakchi rahnamosi Munavvar qori Abdurashidxonovdir. U 1878-yil Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasi, Darxon mahalasidagi elga taniqli oilada dunyoga keldi. Munavvarning otasi Abdurashidxon o'z xovlisida maktab ochib 40 nafar o'quvchiga dars bergan. Onasi Xosiyatxon ham shu yerda xotin-qizlarni o'qitib, ularga bilim bergan.

1885-yilda munavvar 7 yoshiga kirganda otasi vafot etadi. Munavvar yoshligidan o'tkir zehinli bo'lib o'sgan u boshlang'ich ta'limni onasidan olgan. Undan so'ng dastlab

Toshkentda Yunusxon madrasasida o'qiydi. Keyin esa o'n yoshlarida Buxoroga borib, u yerdagi madrasalardan birida besh yil hadis va fiqh ilmi tahsiliga berildi. Toshkentga qaytib Darxon mahallasi masjidida imomlik qiladi. Ilk bor mustaqil faoliyat yuritib, xalqqa islom ilmi nurini yoydi. U diniy va dunyoviy va ijtimoiy- siyosiy mazmunidagi kitoblarni, jurnal va gazetalarni sevib o'qiydi. Ayniqsa jadidchilikning "Otasi" Ismoilbek Gaspirali Qirimda chop etilayotgan "Tarjimon"(1883-1914) gazetasi Munavvarning millatparvar, xalqchi bo'lib yashashiga katta ta'sir qiladi.

Munavvar qori XIX asrning 90-yillarida Ismoilbek Gaspirali tomonidan Qirimda joriy qilingan "usuli jadid" –"usuli savtiya" (tovush usuli)ga asoslangan yangi maktab ochishga bel bog'laydi. Ammo, unga chor ma'muriyati, rus ziyoli missionerlari, mahalliy musulmon mutaassiblari qarshilik qiladi. Juda katta mehnat va turli ta'qiblarga bardosh berish evaziga Munavvar qori 23 yoshida o'z uyida 1901-yil Turkistonda birinchilar qatorida jadid maktabini ochishga muvassar bo'ladi. Unda bolalar o'qish- yozishni olti oyda o'rganib to'la savodli bo'ladi. Buning uchun usuli Qadim- eski an' anaviy maktablarda esa besh yil vaqt sarflanar edi. O'z mehnatidan to'la ma'naviy qoniqish hosil qilgan va ilg'or usulning natijalarini chuqur his etgan Munavvar qori asosiy e'tiborni xalqqa ma'rifat tarqatishga, shuningdek, chorizm mustamlakasining xilma -xil nayranglariga qaratadi. Inqilobdan oldin u bu "qilmishi" uchun bir necha bor chor amaldorlari tomonidan ta'qib qilinadi, surgun qilinishi haqida ogohlantiradi, ammo bu tahdidlar uni sira chochita olmaydi.

Munavvar qori birgina maktab bilan cheklanmay yana bir necha xususiy jadid maktabini ochdi. U yanada oldinga qadam tashlab, birinchi bo'lib, ikki yillik "Rushdiya" jadid maktabini ochib, hozirgi milliy dunyoviy o'rta maxsus ta'limga asos soldi. Bu maktab ham juda keng miqiyosda boshqa joylarda tez rivojlanib, hatto sovet davrida ham asqotdi. "Lenin maktabi", "Muxtoriyat maktabi" deb nomlangan. Maorif taraqqiyotiga qo'shgan boshqa xizmatlari evaziga Munavvar qori mahalliy sovet hukumatining 1923-yil 7-martdagi e'tirof etilgan qaroriga ko'ra "Maorif qahramoni" unvoniga sazavor bo'lgan. Munavvar qori Abdurashidxonov o'ta mustabid va aksilinsoniy ikki kuch zulmi ostida, millat manfaati va

Vatan istiqboli yo'lida, ziddiyatlarga to'la murakkab davrda o'z faoliyatini olib borishiga to'g'ri keldi. Buning oqibatida 1931-yilda 53 yoshida qatag'on qurboni bo'lib shahid ketdi. Munavvar qori ham minglab qatag'onlar qatorida o'z qadr-qimmatini milliy istiqloldan so'ng topdi. Unga oid ko'pgina maqolalar bilan birga uning asarlari ham chop etildi. 2001-yilda "Xotiralarimdan" asari nashrdan chiqdi. 2020-yil 30-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan tarixdagi beqiyos xizmatlari hisobga olinib, Munavvar qori Abdurashidxonov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanadi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat faoliyat doirasi keng shoir va olim, noshir va pedagog, sayyoh va shariat-din arbobi, milliy uyg'onish davrining mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatiga, uning istiqboliga bag'ishladi. Shoirning asli ismi Is'hoqxon bo'lib, "Ibrat" uning adabiy taxallusidir. Is'hoqxon 1279-hijriy (1862-milodiy) yili Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning bobosi Qo'qon xonligida katta e'tiborga loyiq ziyolilar sulolasiga mansub bo'lib, To'raqo'rg'onda uzoq yillar qozilik qilgan va "Afsus" taxallusi bilan she'rlar yozgan To'raxon maxdum edi. Mazkur oila mashhur mutasavvif Ahmad Yassaviy avlodiga mansub bo'lib, XVIII asr oxirlarida To'raqo'rg'on va Mullakudung qishloqlariga hijrat qilgan. Is'hoqxonning otasi Junaydullaxo'ja ancha bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. Is'hoqxonni o'qishni davom ettirish uchun 1878-yilda Qo'qonga yuboradilar va u Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasiga o'qishga kiradi. Is'hoqxon Ibrat 1885-yilda Qo'qon mdrasasini xatmi kutub qilib, o'z qishlog'I To'raqo'rg'onga qaytadi va faoliyatini ilg'or maorifchi- pedagog sifatida qishlog'ida ilm-ma'rifat tarqatish bilan boshlaydi: o'sh yili maktab ochadi. 1902-yilda To'raqo'rg'on qishlog'ida ham bir rus-tuzem maktabi ochilladi va maktabga homiylik qilish xalq qozisi Is'hoqxon to'ra Ibratga topshiriladi. Rus tili bilan bir qatorda o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu masalada o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tilidagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sartcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarini o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" nomli lug'at kitobini yaratadi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat o'z faoliyatini ma'rifat tarqatishga qaratadi. "Usuli qadim" maktablarini ochishga kirishadi, mehnatkash xalq bolalarini maktabga tortadi. Ammo ko'p ko'p o'tmay, mutaassib kimsalar bu maktablarni "kofirlar maktabi" deb yoqib qo'yishadi. Ibratning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ'ibotchisi sifatida ham xizmatlari beqiyosdir. U asos solgan "Kutubxonai Ishoqiya" fondi bu jihatdan ancha boy bo'lib, unda kitob berish va olish ma'lum tartib -qoidaga moslashgan edi. Is'hoqxon to'ra Ibrat xayrli ishlari tufayli xalq hurmatini qozonib, qozilik darajasigaa ko'tarilgan bo'lsa, ilm-fan madaniyat maktab- maorif sohasidagi jonbozligi tufayli ayrim mutaassiblarning nafratiga uchragan. 1937 yilga kelib uning barcha faoliyatiga chek qo'yiladi, kitoblari yoqib, yo'q qilib yuborildi. O'zi esa qatag'onga uchradi. Faqat istiqlool davriga kelib uning nomli va ijodi asl qadr-qimmatini topdi. Kitoblari chop etilib, o'zi tug'ilib o'sgan To'raqo'rg'onda muzey ham tashkil etiladi[4.26].

Ulkan iste'dod egasi Abdulla Qodiriy 1894-yil 10- aprelda Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan. Bo'lajak adib hayot mohiyatini, turmushdagi tirikchilik tashvishlariyu ziddiyatlarini juda erta angladi. XX asr avvali ijtimoiy hayotidagi tang holatlar yosh Abdullaning bolaligiga ham soya tashladi. U bolaligidanoq turmush tashvishlari ichiga sho'ng'idi. U dastlab musulmon maktabida, keyin rus-tuzem maktabi hamda Abdulqosim shayx madrasasida ta'lim oldi. Adibning otasi Qodir bobo Turkiston tsrixida o'tgan bir qancha hukumdorlar zamonida yashab, uzoq umr ko'radi. Abdulla Qodiriy tarbiyasi, ijodi va romanlarining maydonga kelishiga otasidan eshitgan voqea- hodisalar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham adib o'z asarlarida otasini ehtirom bilan tilga oladi , hikoyalaridan birini otasiga bag'ishlaydi. Adib o'z asarlarida mo'tabar onasi Josiyat bibi siymosida ham prototip sifatida foydalangan bo'lishi tabiiy , albatta. Abdulla Qodiriy 1914-yili Rahbarbonu Rasulmuhammad qiziga uylanadi. Ulardan Nazifa Habibulla, Adiba , Mas'ud va Anisa isimli uch qiz va ikki o'g'il tug'iladi. Abdulla Qodiriy odamlar orasiga kirib, jamiyat dardlarini, ayniqsa, Oziq qo'mitasi "Oziq ishlari" gazetasida ishlagan 20-

yillarda ijtimoiy-siyosiy muhit “o’yinlari”ni kuzatadi. Oriflar ko’zi oldidagi hayotni, uning oq- qora ranglaridan boshqa jihatlarini ham ma’rifat oyinasiga solib ko’rishadi.

Abdulla Qodiriy 1924-yil iyunidan 1925-yil iyun oylariga qadar Moskvada o’qiydi. Hayotiy dalillarni o’rganishga ko’ra, adibning Moskvadagi o’qish davri roppa-rosa bir yilga-1924-yil iyunidan 1925-yil iyun oylariga to’g’ri keladi. “Moskov xatlari” turkumini yozadi. 1926-yilda “Mushtum” jurnalida chiqqan “Yig’indi gaplar” maqolasidagi “yuqori rahbarlarga tegadigan qaltis gaplari” uchun ayrim muttaham hamkasblarining chaquvlari oqibatida adib 1926-yili 8-mart kuni qamoqqa olinadi. 1932-yili bir necha o’zbek adiblari bilan birga Moskvada Butunittifoq yozuvchilari uyushmasining Tahkiliy qo’mitasining majlisida qatnashadi. Shuningdek 1934-yili Moskvada bo’lib o’tgan Butunittifoq yozuvchilari uyishmasining 1-Qurultoyida ishtirok etadi. Adib o’zining “Har kim bir nima yozar ekan , oldin vijdonini tarozu qilsin-da Qalam yuritsin”;”Qo’rqoqlik vijdotsizlikdir” kabi so’zlariga hayoti davomida amal qiladi. U cho’zilgan tergovlardan keyin hech bir aybi isbotlanmagan holda 1938-yil 4-oktabrida xalq dushmani sifatida qatl etiladi.

2019-yil dekabrda Toshkentda Abdulla Qodiriy yashagan uyda , shuningdek , poytaxtning Abdulla Qodiriy bog’ida muzeylar tashkil etiladi. Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi ishlab turibdi[5.26].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkaev E. Turkistonda jadidchilik harakati va ularning istilochilik faoliyati. –Andijon. 2015. –B. 9.
2. Mutalibovich K. D. O’zbekiston tarixi. –Toshkent. 2022. –B. 74.
3. Sa’dullayev A. Abdulla Avloniy. –Toshkent. “Yoshlar nashriyoti uyi”. 2022. –B. 8
4. Is’hoqxon To’ra Ibrat. “Tarixi Farg’ona”. –Toshkent. 1992. –B. 26.
5. Sa’dullayev A. Abdulla Avloniy. –Toshkent. “Yoshlar nashriyoti uyi”. 2022. –B. 26